



THE KARMANA (MIRZACHORBOG‘) PALACE DURING THE MANGHIT EMIRATE: HISTORY AND ARCHITECTURAL FEATURES

Gulmira Murodova

Asia International University

E-mail: gulmiramurodova319@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Avesta, Videvdat, Zoroastrianism, historical geography, Airyanem Vaejah, Hindu Kush, archaeological evidence, regional localization.

Received: 04.09.26

Accepted: 05.09.26

Published: 06.09.26

Abstract: This article scientifically analyzes the historical-geographical localization of the 16 sacred lands mentioned in the first chapter of the Avesta's Videvdat (Vendidad). Contrary to traditional Pahlavi sources associating the Zoroastrian homeland primarily with the Iranian plateau, this study introduces a novel approach using detailed textual, geographical, and recent archaeological evidence. The research effectively demonstrates these specific countries form four logical geographic chains starting directly from the Pamir region: extending along the Amu Darya, the Hindu Kush foothills, and the eastern borders. Ultimately, the study confidently concludes the Videvdat list completely excludes the Iranian plateau, suggesting the original text was likely composed in Southern Afghanistan around the mid-6th century BC.

VIDEVDAT RO‘YXATIDAGI AVESTA MAMLAKATLARINING TARIXIY-GEOGRAFIK LOKALIZATSIYASI

Gulmira Murodova

Osiyo xalqaro universiteti

gulmiramurodova319@gmail.com

Buxoro, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Avesta, Videvdat, zardushtiylik, tarixiy geografiya, Airyana Vaeja (Airianəm Vaējah), Hindukush, arxeologik dalillar, mintaqaviy lokalizatsiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi yozma yodgorlik – Avestoning Videvdat (Vendidad) qismida tilga olingan 16 ta muqaddas mamlakatning tarixiy-geografik joylashuvi ilmiy asosda tahlil qilingan. Pahlaviy matnlari hamda zardushtiylik vatanini anʼanaviy ravishda Eron platosi bilan bogʻlovchi qarashlardan farqli oʻlaroq, matniy, geografik va soʻnggi arxeologik dalillarga tayangan holda yangicha yondashuv ilgari suriladi. Natijada mazkur oʻlkalar Pomirdan boshlanuvchi toʻrt mantiqiy zanjir (Amudaryo boʻylab, Hindukushning shimoliy va janubiy etaklari, Sharqiy sarhadlar) uzviyligida joylashgani isbotlangan. Tadqiqot xulosalari shuni koʻrsatadiki, Videvdat roʻyxati Eron platosini butunlay chetlab oʻtadi va matn ehtimol miloddan avvalgi VI asr oʻrtalarida Janubiy Afgʻoniston hududlarida yaratilgan degan farazni tasdiqlaydi.

ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ ЛОКАЛИЗАЦИЯ АВЕСТИЙСКИХ СТРАН В СПИСКЕ ВИДЕВДАДА

Гульмира Муродова

Международный университет Азии

E-mail: gulmiramurodova319@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Авеста, Видевдад, зороастризм, историческая география, Айрьяна Ваэджа, Гиндукуш, археологические данные, региональная локализация.

Аннотация: В данной статье анализируется историко-географическая локализация 16 священных стран, упомянутых в первой главе Видевдада – важнейшей части Авесты. В отличие от пехлевийских источников и традиционных взглядов, связывающих родину зороастризма исключительно с Иранским плато, здесь выдвигается совершенно новый подход. С помощью глубоких текстовых, географических и новейших археологических данных детально обосновывается, что эти страны расположены в виде четырех логических цепей, берущих начало на Памире и проходящих вдоль Амударьи, предгорий Гиндукуша и восточных границ. Результаты исследования показывают, что список Видевдада полностью исключает Иранское плато, что позволяет предположить о составлении данного текста в Южном

Kirish. Avestaning Kichik Avesta qismiga kiruvchi Videvdat asarining birinchi bobida Ahura Mazda tomonidan yaratilgan o'n olti "yaxshi mamlakat" hamda ularning har biriga qarshi yovuzlik xudosi Ahriman yuborgan ofatlar ro'yxati keltirilgan. Bu ro'yxat zardushtiylikning eng qadimgi qatlamlariga mansub bo'lib, unda tilga olingan joy nomlari — Airiianəm Vaējah, Sugda, Mouru, Baxdi va boshqalar — nafaqat diniy-mifologik ahamiyatga, balki qadimgi Sharqiy Eron dunyosining tarixiy-geografik xaritasini tiklashda ham asosiy manba sifatida qadimdan e'tirof etilgan. Boshqa Avesto matnlari, xususan Yashtlar, muayyan hududlarni ancha aniqroq tarzda tasvirlaydi va bu tasvirlar sharqiy Eron mintaqalari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi: "Mihr Yasht"da tilga olingan baland tog' — Hindukushning bir qismi bo'lgan Bomyon hududi bilan, "Zamyad Yasht"da qayd etilgan Hamun ko'li esa Seiston botig'i bilan tenglashtiriladi. Bu geografik izchillik zardushtiylikning ilk shakllanish maskani masalasida muhim yo'l ko'rsatuvchi vazifasini bajaradi. Shunga qaramay, Videvdatning birinchi bobida sanab o'tilgan o'n olti mamlakatning aniq geografik joylashuvi masalasi zardushtiylikshunoslik fanida asrlar osha bahsli bo'lib qolmoqda. Sosoniylar davri Pahlaviy sharhlovchilari, o'z davrining siyosiy-diniy manfaatlaridan kelib chiqib, ilk zardushtiylik vatanini imperiya markazi — G'arbiy Eron platosi bilan bog'lashga harakat qilishgan. Bu tendentsiya XX asr o'rtalarigacha bo'lgan ko'plab Yevropa sharqshunoslarining tadqiqotlarida ham davom etdi, ular Pahlaviy an'anasidagi geografik moslashtirishlarni ko'p hollarda tanqidiy tahlil qilmasdan qabul qilishgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Videvdat mamlakatlarining geografik joylashuvi xorijiy va mahalliy manbashunoslar tomonidan turli xil yondashuvlar asosida o'rganilgan. Xususan, G. Gnoli o'zining yirik tadqiqotlarida zardushtiylik vatani va uning xronologiyasi masalasini tahlil qilib, markazni ko'proq Sharqiy hududlar bilan bog'lash konsepsiyasini ilgari surgan [1, 55-b.]. U. Vogelsang esa Sharqiy Eronning siyosiy geografiyasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida mintaqaning imperiya sarhadlaridagi ahamiyatini ko'rsatib bergan [2, 18-b.]. Shuningdek, arxeolog F. Grenet Videvdat geografiyasini moddiy madaniyat yodgorliklari va arxeologik qazishmalar natijalari bilan solishtirib, qadimgi hududlarni qayta talqin qilishga bag'ishlangan izlanishlar olib borgan [3, 31-b.]. Biroq, bu tadqiqotlar natijalarini O'rta Osiyo va Afg'onistonning yangi arxeologik topilmalari bilan yaxlit mantiqiy zanjir doirasida qiyosiy o'rganish hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Ushbu tadqiqotning maqsadi — Videvdatdagi o'n olti mamlakatning tarixiy-geografik lokalizatsiyasini tanqidiy tahlil qilish, ularning o'zaro ketma-ketligidagi ichki mantiqni aniqlash va natijada yaxlit, izchil tarqalish xaritasini shakllantirishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida Avestaning Videvdat kitobi birinchi

bobida keltirilgan 16 ta mamlakat ro'yxati olingan. Izlanish davomida quyidagi uchta asosiy metodologik tamoyil qo'llanildi:

Tarixiy-tanqidiy yondashuv. Pahlaviy matnlaridagi an'anaviy talqinlar, xususan, Videvdat mamlakatlarini sun'iy ravishda Sosoniya imperiyasining markaziy hududlariga ko'chirishga qaratilgan urinishlar tanqidiy tahlil qilindi.

Matniy va geografik tahlil. Avestadagi har bir mamlakatga berilgan tavsiflarga — iqlim xususiyatlari, daryolar oqimi yo'nalishi va har bir hududga xos "ofat" turiga, misol uchun zararkunandalar, ijtimoiy gunohlar, tabiiy ofatlar kabi jihatlarga jiddiy e'tibor qaratildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Videvdat ro'yxatidagi o'n olti mamlakatning tartibi tasodifiy emas, balki geografik jihatdan izchil, soat milining teskari yo'nalishida harakatlanuvchi to'rtta mantiqiy zanjirni tashkil etadi. Boshlang'ich nuqta sifatida iqlimi eng sovuq mamlakat — "Airianəm Vaējah" belgilangan bo'lib, u Pomir tog' tizmasi va qadimgi Vaxsh–Oks ya'ni Amudaryoning yuqori oqimi bilan bog'lanadi. Qolgan o'n besh mamlakat quyidagi to'rt zanjir bo'yicha taqsimlanadi:

Amudaryo bo'ylab g'arbga qarab- bu zanjirga Sugda-Sug'diyona va Mouru-Marg'iyona kiradi. Ikkala mamlakat ham hozirgi O'zbekiston va Turkmaniston hududlarida joylashgan. Arxeologik dalillar, jumladan Jarqo'tondagi topilmalar va Samarqand hududidagi qadimgi o't qurbongohlari izlari buni ishonchli tarzda tasdiqlaydi [4, 85-b.]. Sug'diyonaning "chigirtka balosi" bilan bog'lanishi mintaqaning qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan ekologik landshaftini aks ettiradi.

Hindukushning shimoliy etaklari-Pomir yaqinidan boshlanib, g'arbga — Baqtriya, so'ngra "Nisaia"-Juzjon va "Haroiua"-Hirot orqali davom etadi. "Nisaia"ning "xudosizlik gunohi" bilan bog'lanishi bu hududning chegara mintaqasi sifatidagi noaniq holatini, "Haroiua"ning esa "uy-joyini tashlab ketish"[5, 23-b] motivi ko'chmanchi-o'troq aholi o'rtasidagi doimiy migratsiyani aks ettiradi.

Hindukushning janubiy etaklari- Janubga o'tib, "Vaeškṛta"-Kobul, "Urva"-G'azni, "Xnənta"-Tarnak, "Araxosiya"-Qandahor va "Seiston"-Hilmand mamlakatlarini qamrab oladi. "Vaeškṛta"ning otchilik bilan bog'lanishi Kobul vodiysi relyefi va jangchi qabilalar an'anasini ko'rsatsa, Seistonning ahamiyati Hamun ko'li mintaqasi bilan bog'liqligi orqali tasdiqlanadi.

Sharqiy va janubiy sarhadlar- Badaxshondagi "Ragha"dan boshlanib, Hindiston shimolidagi "Hapta Hindava" - hozirgi Panjob va qishlari qahraton "Rarha" asosan Hind daryosining yuqori havzasini o'z ichiga oladi. Bu iqlim ekstremallari ya'ni haddan tashqari issiq va ayovsiz qish geografik xilma-xillikni ko'rsatish uchun ataylab qarama-qarshi qo'yilgan.

Muhokama. Videvdat ro'yxatining hududlarni tavsiflash mantiqi Doro I ning Behiston yozuvlaridagi mamlakatlar ro'yxatiga tuzilishi jihatidan o'xshab ketadi[6. 156-b]. farqi shundaki, geografik harakat yo'nalishi teskari tartibda berilgan. Behiston yozuvida ro'yxat imperiya markazidan chekka viloyatlarga tomon harakatlansa, Videvdatda eng chekka va sovuq shimoliy-sharqiy nuqtadan boshlanib, izchil ravishda janubi-g'arbga va so'ngra janubi-sharqqa tomon "aylanib" boradi. Ro'yxatda Midiya yoki Fors singari g'arbiy hududlarning umuman tilga olinmasligi ahamiyatli. Agar Videvdat G'arbiy Eron ta'siri ostida yozilganda, kamida bilvosita tarzda imperiya markazi mamlakatlariga ishora qilingan bo'lardi [6, 112-b.].

Xulosa. Tadqiqot xulosalariga ko'ra, Videvdat mamlakatlari ro'yxati an'anaviy Pahlaviy davridan meros qolgan qarashlarga zid o'laroq, G'arbiy Eron platosini — ya'ni tarixiy Ahamoniylar imperiyasining siyosiy markazini — deyarli to'liq istisno qiladi. Barcha xaritalangan 16 mamlakat "Marv–Hirot–Seiston" chizig'i bilan chegaralangan Sharqiy Eron, O'rta Osiyoning janubiy qismi va Hindistonning shimoli-g'arbiy chekkalariga mos keladi. Ushbu dalillar Videvdatning birinchi bobi G'arbiy Eron hududida emas, balki taxminan miloddan avvalgi VI asr o'rtalarida O'rta Osiyo janubi[7. 25-b] yoxud unga bevosita tutash hududlarda yaratilgan, degan xulosaga kelishga imkon beradi. Bu yangi xulosa, mintaqadagi qo'shimcha arxeologik qazishmalar orqali yanada chuqur tekshirilishi lozim bo'lgan istiqbolli yo'nalishni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gnoli G. Zoroaster's Time and Homeland: A Study on the Origins of Mazdeism and Related Problems. – Naples: Instituto Universitario Orientale, 1987. – 415 p.
2. Vogelsang W. Geographical aspects of Eastern Iranian political history // Archäologische Mitteilungen aus Iran und Turan. – Berlin: Dietrich Reimer Verlag, 2000. – P. 13-24.
3. Grenet F. An Archaeologist's Approach to Avestan Geography // Birth of the Persian Empire. – London: I.B. Tauris, 2005. – P. 29-51.
4. Shaydullayev Sh. B. O'rta Osiyoda zardushtiylikning shakllanishi va arxeologik yodgorliklari. – Toshkent: Fan, 2020. – 150 b.
5. Darmesteter J. The Zend-Avesta: The Vendidad. – Oxford: Clarendon Press, 1880. – 390 p.
6. Boyce M. A History of Zoroastrianism: The Early Period. – Leiden: Brill, 1996. – 350 p.
7. Humbach H. The Gathas of Zarathushtra and the Other Old Avestan Texts. – Heidelberg: Winter, 1991. – 200 p.